

**BUXORODAGI QIZBIBI XONAQOSINING KOMPOZITSIYAVIY
ECHIMLARI VA ME'MORIY TIPOLOGIYASI**

Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,
Arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent.*

maxmatkulov1@mail.ru tel. +998 90 196 17 40

Ismoilov Bekzod Zokir O'g'li

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,
Arxitektura fakultetining 4-bosqich talabasi*

Ismoilov@mail.ru. +998 93 334 44 80

Annotatsiya: Maqolada Qizbibi xonaqosining paydo bo'lishi, xalq orasidagi rivoyatlar va xonaqohning kompozitsiyaviy asoslari va tipologiyasi haqida dalillar keltirilgan. Xonaqohning funksional vazifasi, unda ishlatilgan me'moriy bezaklari hozirgi kundagi holatlari, hamda ziyoratgohdan samarali foydalanish asoslari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Buzruk, Og'oyi Buzruk, peshtoq, ibodatxona, tashnov, hammom, tahoratxona, halimxona, xumdon, murshid.

Qizbibi yoki Og'oyi Buzruk ayollar xonaqosi Buxoro viloyatning Jondor tumanida, Buxoro shahridan 30 km g'arbda joylashgan. Maydoni 0,5 gektar. Mahalliy aholi orasida Qizbibiga nisbat beriladigan uch rivoyat mavjud. Birinchi qadimiy rivoyatga ko'ra, Qizbibi Sulaymonning qizi hisoblanadi. Ikkinchi rivoyat bo'yicha, Qizbibi xonaqohi Buxorodagi Mir Arab madrasasi bilan bir paytda, ya'ni XVI asrning 30-yillarida barpo etilgan va madrasani qurgan quruvchi tomonidan Qizbibiga yuborilgan sovchilik muvaffaqiyat qozona olmagan. Uchinchi rivoyat Mirzo Sharif bilan Bibi Sharifaning turmush qurgani to'g'risida xabar beradi. Bibi Sharifa yaqin orada qiz ko'rishini va u qiz 14 yoshgacha ota-onasi bilan birga yashashini, so'ngra ota-ona uyini tark etib, olima bo'lishini, keyin esa "Og'oyi Buzruk" degan joyga borib, u erda Xudo va odamlar o'rtasida vositachilik qilib umrguzaronlik qilishini bashorat qiladi. Ushbu ma'lumotni "Mazhar al-ajoyib va majmua al- g'aroyib" (Ajoyib voqealar majmuasi) asari muallifi tasdiqlaydi[1]. Xonaqohning asosiy kirish eshigi janub tomondan, pishiq g'ishtdan qurilgan. Majmua binolari asosan XIX asr davomida qad ko'targan va to'rt hovli atrofida joylashgan. Qishgi va yozgi xonalardan tashkil topgan ulkan gumbazli masjid-xonaqoh baland bo'lib, majmuani birlashtirib turadi(1-rasm).



1-расм. Қизбиви хонақосининг умумий куруниши

Uning silliqqlangan g'ishtlar bilan bezatilgan mahobatli peshtoqli old tomoni sharqqa, Qizbibi mozoriga qaragan. Kichik peshtoqli shimoliy old tomoni esa uch tomondan hujralar bilan o'ralgan ibodatxona hovlisi bilan tutashgan. Hujralarda o'choqsimon pech va tashnov mavjud bo'lib, ular ziyoratchilarning bu erda o'zoq muddat istiqomat qilishiga mo'ljallangan. Xonaqohning janubiy qismiga ziyoratchilarning qisqa muddatli turishiga moslashtirilgan darvozaxonali hovli tutashtirilgan. Qibla devorda, mehrobning ikki tomoni bo'ylab, shifobaxsh suvli quduqqa chiqadigan ikki eshik o'rni bo'lgan. Ushbu qismda hammom va tahratxona qurilgandan so'ng, eshiklar o'rni suvab tashlangan[1].

Qizbibi mozori taxminan XVIII asr oxirlarida ikki xilxonali etib qurilgan maqbaraga ega. Uning yagona bezakli binosi hisoblangan ayvon keyinroq machit-xonaqohning bosh peshtoqiga qaratilib qurilgan. Ayvon oynali yog'och o'ymakorlik uslubi bilan bezatilgan. Maqbaraning shimoliy devori oldida panjali tug' qad ko'tarib turibdi. Qizbibi maqbarasining janubida mozorga o'tishni maxsus qiyinlashtiradigan bir qancha imoratlar barpo etilgan. Shuningdek, bu erda ilgari mehmonxona, ayollar machiti va hovlichalar joylashgan. Ularning maqbaradan tashqari barchasi o'tgan asrning 30-yillarida buzib tashlangan. Maqbara va xonaqohning ayollarga mo'ljallangan qismiga erkaklar hech qachon kirmagan. Bu odat hozirgacha saqlanmoqda. Majmuani shimoliy sharq tomondan oshxona yoki halimxona va xo'jalik hovlisi o'rab turadi. Bu erda ko'plab o'choq va tandirlar joylashgan. Shuningdek, uy-ro'zg'or anjomlari, jumladan, halisa (halim) tayyorlash uchun katta qozonlar saqlangan(2-rasm).



1-rasm. Buxoro viloyatidagi Qiz-Bibi xonaqohi. 1-Darvozaxona sufiylar maqbarasi va xizmat xonalari bilan. 2- Chillaxona kirish joyida to'g'i bilan. 3- Xo'jalik hovlisi. 4- Oshxonona. 5- Ayollarga tegishli xonalar. 6 - Qiz-Bibi qabri. 7 - Musulmonlar qabristoni. 8 - To'g'; 9 – Ayvon tagidagi Qiz-Bibi qabrtoshi; 10- Ibodatxona hovlisi; 11 – Xonaqoh masjidi; 12 – Quduq; 13 – Xammom; 14 – Ziyoratchilarning hovlisi; 15 –Ruxiy kasallar uchun xona.

Marosimlarni o'tkazish joy yulduzcha bilan belgilangan.

Nomi bizga noma'lum saxovatpesha shaxs tomonidan 1913-1914 yillarda majmuaning ayollar qismi va oshxonasi quriladi. Buning uchun majmua yaqinida xumdon qurilib, unda evropacha “saldoti” deb atalgan to'g'ri burchakli g'ishtlar pishirilgan[3].

XX asrning 80 yillari boshlariga qadar xonaqohning yarmidan ko'pi ko'chuvchi qumlar ostida qolib ketgan edi. Shunga qaramay, bu joy atrof qishloqlar aholisi o'rtasida ziyoratgoh sifatida mashhur bo'lib qolaverdi. Ta'mirlash ishlari davrida yangi

oshxona qurilgan. Navro‘z, Ro‘za, Qurbon bayramlari, shuningdek, payshanba, yakshanba kunlari bu erga ko‘plab odamlar tashrif buyuradi. Naqshbandiya tariqati mahalliy tarmoqlaridan birining murshidasi Mastura- xonim yoki Og‘oyi Buzruk ushbu mansabni SHayx SHodi G‘idyuti va uning rafiqasidan so‘ng egallaydi. U bobosi va otasi tarafidan murshid(a)lik ruhida tarbiyalanadi. Uning muridlari orasida erkak va ayollar, jumladan, Mo‘g‘ul-xonim (yoki Oysha-xonim), ya’ni Boburning opasi-Shayboniyxonning rafiqasi ham bor edi. Qizbibi hijriy 929 yil 16 ramazonda, milodiy 1523 yil 30 iyulda vafot etadi.

Darhaqiqat, dunyoga kelgan Bibi Hanifa ismli qiz 14 yoshida savod egallab, onasi bashorat qilgan joyga kelib o‘rnashadi va o‘zini ibodat va tabobatga bag‘ishlaydi. Kunlarning birida u hujralardan biriga kirib, yo‘qolib qoladi. Ayollar har juma kuni muayyan bir joyga uning uchun suv, qatiq va taroq olib kelishgan. Qizbibi hech kimga ko‘rinmay, yuvingan. Bir so‘fiy Qizbibi bilan odamlar o‘rtasida vositachilik qilgan. Bu so‘fiy keyinchalik xonaqoh binolarining birida dafn qilinadi. Mahalliy aholi uning ruhi hali ham shu erda saqlanib ayollarni bepushtlikdan davolab kelmoqda deb ishonishadi[1].

Qizbibiga davolanish maqsadida Tojikiston, Qozog‘iston, Turkmaniston va vatanimizdan yuzlab ayollar kelib davolanib ketmoqdalar. Ayollar xujralarda 3 kunlik chilla turib, namoz o‘qib keyin ketadilar. Mahalliy aholining aytishicha, har yili o‘nlab kishilar davolanib bolalik bo‘lib ketar ekanlar.

Hozirgi kunda ziyoratgoh atrofi obodonlashtirilib, respublikamiz va xorijdan sayyohlarni jalb qilish uchun ushbu betakror, o‘ziga xos tarixga ega, afsonalar pardasi bilan o‘ralgan majmuani kengroq targ‘ib etish muxtojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev N., Qurbonov H. Buxoro shahri va uning atrofidagi ziyoratgohlar tarixi. – Buxoro, 2001.
2. Suxareva O. Buxara, XIX nachalo XX vv. - M., 1990.
3. Pugachenkova G.A. Buxarskie xanaka//Buxara i mirovaya kultura. Выр. II.–1994.
4. Maxmatqulov, I. T., & Sherqulova, D. G. (2022). SYMBOLIC MEANINGS AND CHARACTERISTICS OF PATTERNS AND DECORATIONS IN CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS IN THE XIV-XV CENTURIES. Евразийский журнал академических исследований, 2(2), 744-749.
5. Maxmatqulov, I. T. (2022). Proposals for the Use of Historic Shopping Malls in Uzbekistan for Modern Purposes. Middle European Scientific Bulletin, 21, 198-201.
6. Maxmatqulov, I. T., & Makhmatkulov, T. M. (2023). The Architectural Construction and Advices of Using in Modern Ways Khonaqohs of Ancient Monuments of Uzbekistan. American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture, 1(1), 8-11.
7. Maxmatqulov, I. T., & Makhmatkulov, T. M. (2023). Use of Ceramic and Brick Decorations in Cultural Heritage Objects in Samarkand. American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture, 1(1), 12-16.
8. Махматкулов, И. Т. (2020). Типология архитектурно-композиционных решений зданий ханака в центральной азии. Электронный сетевой политематический журнал " Научные труды КубГТУ", (8), 581-585.